

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'RPLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarda.....	17
<b>B.Q.Qurbanova</b>	
Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar ....	22
<b>S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov</b>	
O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni .....	27
<b>G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova</b>	
Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
<b>Sh.A.Ro'zaliyev</b>	
Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishslash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari .....	40
<b>A.R.Abdullayeva</b>	
Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili .....	43
<b>N.U.Alijonov</b>	
Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
<b>M.Y.Atadjanov</b>	
Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili .....	54
<b>N.N.Ahmadjonov</b>	
Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
<b>M.A.Djalalova</b>	
Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili .....	65
<b>N.A.Ergasheva</b>	
Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
<b>Sh.K.Mamajonova</b>	
O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish .....	73
<b>D.M.Mo'minov</b>	
Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish .....	81
<b>D.M.Nuralieva</b>	
O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	87
<b>R.S.Nuriddinov</b>	
Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
<b>M.J.Rajabov</b>	
Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili .....	96
<b>F.S.Soliyev</b>	
Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari.....	100
<b>Sh.A.Usmonov</b>	
Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli .....	106
<b>M.B.Yuldasheva</b>	
Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari .....	111
<b>G.S.Yunusova</b>	
O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili .....	116
<b>M.S.Zakirova</b>	
Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni .....	121
<b>H.A.G'anieva</b>	
Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
<b>Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов</b>	
Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA .....	134



УО'К: 351.86:32 (575.1)

**ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK VA IJTIMOIY-MADANIY  
XAVFSIZLIGI INDEKSINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНДЕКСА  
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В  
СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

**PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR INCREASING THE INDEX OF  
PSYCHOLOGICAL SAFETY AND SOCIOCULTURAL SAFETY IN THE MODERN  
EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

**Soliyev Farxodjon Sodiqovich** 

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd),

**Annotatsiya**

*Maqolada ta'lim hududi va hudud xavfsizligining ta'lim oluvchiga ta'siri, ta'lim muxitini psixologik xavfsizligining metodologik va nazariy asosllari muammosiga oid izlanishlar borasida ma'lumotlar berilgan. E. N. Gilemhanovning "Maktab o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi"ga oid emperik natijalar ijtimoiy-psixologik zaiflik, ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya, virtual autizatsiya shkalalari orqali qo'lg'a kiritilgani ma'lumotlar asosida bayon qilingan. Shuningdek, yuqori sind o'quvchilarida ijtimoiy madaniy xavfsizlik indeksi bo'yicha farqlar tahlili berilgan.*

**Аннотация**

В статье представлены сведения об исследовании проблемы образовательной среды и влияния безопасности среды на обучающегося, методологических и теоретических основ психологической безопасности образовательной среды. Эмпирические результаты Е. Н. Гилемхановой «Индекс социокультурной безопасности школьников» получены через шкалы социально-психологической уязвимости, социально-психологической дезинтеграции, виртуальной аутизации и изложены на основе данные. Также дан анализ различий индекса социальной и культурной безопасности у старшеклассников.

**Abstract**

*The article presents information about the study of the problem of the educational environment and the influence of environmental safety on the student, the methodological and theoretical foundations of the psychological safety of the educational environment. The empirical results of E. N. Gilemkhanova "Index of sociocultural safety of schoolchildren" were obtained through the scales of socio-psychological vulnerability, socio-psychological disintegration, virtual autism and are presented on the basis of the data. An analysis of differences in the index of social and cultural security among high school students is also given.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim hududi, hudud xavfsizligi, ta'lim muxitini psixologik xavfsizligi, maktab o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi, ijtimoiy-psixologik zaiflik, ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya, virtual autizatsiya, viktimiuniylik shkalasi, autoagressivlik shkalasi.

**Ключевые слова:** образовательная территория, территориальная безопасность, психологическая безопасность образовательной среды, индекс социокультурной безопасности школьников, социально-психологическая уязвимость, социально-психологическая дезинтеграция, виртуальный аутизм, шкала виктимизации, шкала аутоагрессии.

**Key words:** educational territory, territorial security, psychological safety of the educational environment, index of sociocultural safety of schoolchildren, socio-psychological vulnerability, socio-psychological disintegration, virtual autism, victimization scale, auto-aggression scale.

**KIRISH**

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining qabul qilinganligi va bu huquqiy asos orqali yoshlarni psixologik qo'llab quvvatlash, yosh avlod uchun yetarli ish shart-sharoitlarini ta'minlash, ta'lim muhitida o'quvchi shaxsi xavfsizligiga raxna soluvchi tahdidlar va ularni bartaraf qilish orqali xavfsiz hududni shakllantirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham ularning kelgusida munosib hayot kechirishlari uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

## PEDAGOGIKA

Bugungi kunda ta'lif muhitida o'quvchi shaxsi xavfsizligiga tahidilar va ularni bartaraf qilishning ijtimoiy-psixologik usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish dolzarb muammo sifatida tan olinib kelinmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

XX asrning ikinci yarmidan boshlab ta'lif hududi va hudud xavfsizligining ta'lif oluvchiga ta'siri muammosini o'rganishga qiziqish kuchayib bordi. Ta'lif xavfsizligi bilan bog'liq o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga oid muammolar bilan rus psixologlarining ilmiy izlanishlari mavjud bo'lib (V.A. Yasvin<sup>2</sup>, V. V. Rubtsov<sup>3</sup>, V.I. Slobodchikov<sup>4</sup>, va boshqalar), ularning ilmiy izlanishlarida ta'lif muassasasini zamona viy loyihalashtirish orqali xavfsiz, osoyishta hududlar tashkil etishning psixologik aspektlari hamda o'quvchilar ijtimoiylashuvi va ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga ko'maklashuvchi omil sifatida o'rganilgan.

Ta'lif muxitini psixologik xavfsizligining metodologik va nazariy asosllari muammosini S.E.Chirkina, R.A.Axmedov, K.S.Bajin, Ye.V.Sarevalar tomonidan tadqiq etilgan. Ular ta'lif muhitida ishtirokchilarning o'zaro munosabatlardagi psixologik xavfsizlik muammosini keng yoritib bergenlar<sup>5</sup>

Ta'lif muhtini tipologiyasi va modellash psixologik-pedagogik tadqiqot metodlari sifatidagi qarashlar rus psixologlari bilan birga mamlakatimiz olimlri tomonidan ham mavjud bo'lib, asosan ta'lif hududidagi yaratilgan sharoitning bilim olishga ta'siri to'g'risida izlanishlar olib borilgan.

O.S.Abduqaxxarova ta'lif muhiti ta'lif faoliyatini tashkil etishning zaruriy sharti ekanligini asoslagan holda, MTTdagi muhit jadal rivojlanib boruvchi, bolaning bilim va qiziqishlari, ixtiyorli fazilatlari, hissiyotlari paydo bo'llishi va rivojlanishiga turki ta'sir etishi borasida tadqiqot ishlari olib borgan<sup>6</sup>. U o'z ishida xavfsiz hudud muammosiga to'xtalmasada, hududning garmonik jihozlanishining kognetiv rivojlanishga ta'siri to'g'risida mulohazalar bildirgan.

Respublikamizda o'quv jarayonining psixologik xavfsizligi muammosi ilmiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Agar ushbu muammoning mexanizmlari ochib berilsa, bu o'quvchilarning qadr-qimmatiga, ruhiy farovonligiga, ijobiy dunyoqarashiga va o'ziga bo'lgan munosabatiga tahidlardan himoyalanish holatini yaxshilashga ko'maklashgan bo'lar edi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Xavfsiz hududda ta'lif va tarbiya olish o'quvchi shaxsining yashirin potentsiallarini ochib berish, insonning to'laqonli shaxs sifatida pozitiv hayot kechirishlari uchun katta imkoniyatdir.

O'quvchilar ehtiyojlarini qondira oladigan, to'liq xavfsizlikni ta'minlaydigan va bo'llishi mumkin bo'lgan xatarlarni minimallashtira oladigan maktab hududi, xavfsiz hudud sanaladi. Bunday xuddularni tashkil etish esa bir necha talablarni o'z ichiga oladi. Shulardan biri maktab binosining o'ziga xos ko'rinishga ega ekanligi, masalan, keng ochiq bo'shliliqning kam bo'lishligi, uni turli to'siqlar orqali berkinish mumkin bo'lgan o'quvchilar uchun kiyim solish javonlarining mavjudligi, yo'laklarning to'g'ri uzun bo'lishidan holi tashkil etish va h.z.

Yuqoridaagi ta'kidlangan xavfsiz hududning mavjudligini aniqlash maqsadida maktab o'quvchilarining ijtimoiy – madaniy xavfsizligi aniqlandi. Tadqiqotimizda Quva tumani 61-umumiyl o'rta ta'lif maktabining yuqori sinflari ishtirok etdilar.

Tadqiqotda E.N.Gilemxanovning "Maktab o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi" so'rovnomasi o'tkazildi. Tadqiqotda 347 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

So'rovnama 35 ta bayonotdan iborat bo'lib, ularning har biriga 4 ta javob varianti ("ha", "ha bo'lsa kerak", "yo'q", "yo'q bo'lsa kerak") berilgan. Respondent o'z fikriga eng mos keladiganini tanlashi kerak bo'ladi, ya'ni, uning tipik xulq-atvori yoki hissiy munosabatini tavsiflovchi iboralarni tanlashi lozim bo'ladi. Tadqiqot anonim tarzda o'tkazildi, faqat respondentlarning demografik ma'lumotlari qayd etdildi.

<sup>2</sup> Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. — М.: Смысл, 2001. — 365 с.

<sup>3</sup> Рубцов В. В., Поливанова К. Н. Образовательная среда школы как фактор психического развития учащихся. — М.: ПИ РАО, 2007.

<sup>4</sup> Слободчиков В. И. Психология образования человека. Становление субъектности в образовательных процессах. Учебное пос. — М.: «Православный Свято-Тихоновский гуманитарный университет», 2014. — 432 с.

<sup>5</sup> Чиркина С.Е., Ахмеров Р.А., Бажин К.С., Царева Е.В. Основы формирования психологически безопасной образовательной среды: учебно-методическое пособие / С.Е. Чиркина, Р.А. Ахмеров, Казань: Издательство «Бриг», 2015. - 136 с

<sup>6</sup> Abduraxxarova O.S. Таълим мухити – болаларнинг тўлақонли таълим фаолиятини ташкил этишнинг асосий шарти. "Теория и практика современной науки" №12(78) 2021- 3 б.

So'rovnama yordamida maktab o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi uchta shkalaga oid aniqlandi. Ular ijtimoiy-psixologik zaiflik, ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya (parchalanish), virtual autizatsiya (odamovilik) shkalalaridan iborat bo'lib, shkallalar asosida ijtimoiy madaniy xavfsizlik indeksi aniqlandi. Testni qayta ishslash shkala bo'yicha ball qo'yish va integrativ ko'rsatkichni hisoblash natijasida aniqlandi.

Har bir shkalaga oid natijalar tahlili sinflar tizimida o'rganilib chiqildi. Dastlab, "ijtimoiy-psixologik zaiflik" shkalasi tahlil qilindi.

#### **1-jadval.**

#### **"Ijtimoiy-psixologik zaiflik" shkalasi bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar.**

Sinflar	Me'yoriy ko'rsatkichlar (12-20 ball)	Me'yordan og'ish ko'rsatkichlar (12 baldan kam)
9-sinf	56,25 % (N=72)	43,75% (N=56)
10-sinf	69,16% (N=83)	30,83% (N=37)
11-sinf	66,66% (N=66)	33,33% (N=33)
<b>Umumiy ko'rsatkich</b>	<b>63, 68% (N=221)</b>	<b>36,31% (N=126)</b>

"Ijtimoiy-psixologik zaiflik" shkalasi natijalari so'rovnama kalitiga muvofiq me'yoriy va og'ish ko'rsatkichlariga bo'linib o'rganildi. Ijtimoiy zaiflik shkalasi o'z tarkibiga kichik ikkita shkalani oladi. Birinchi kichik shkala viktimniylik shkalasi bo'lib, viktimniylik jinoyat qurbaniga aylanishga moyillik hisoblanadi va boshqalar uchun neytral bo'lgan sharoitlarda jinoyatchilarning qurbaniga aylanishga bo'lgan barqaror xususiyatdir. Ikkinci kichik shkala autoagressivlik shkalasi bo'lib, jismoniy va aqliy sohalarda o'ziga zarar yetkazishga qaratilgan (ongli yoki ongsiz ravishda) faoliyat hisoblanadi. Psixoanalitiklar nuqtai nazariga ko'ra autoagressivlik ximoya mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, sinaluvchilarning 36,31 %i viktim va autoagressiv xususiyatlarga ega ekanliklari aniqlandi. Bunday o'quvchilarda o'z-o'ziga zarar yetkazish yoki mavjud jinoyat qurbaniga aylanish xususiyatlar shakllangan. Ularda telemaniya (televizion ko'rsatuvlarga o'ta bog'liqlik), spirtli ichimliklarga moyillik, taksikomaniya, qaltis jinsiy aloqalarga nisbatan qiziqish, shuningdek, ekstremal sport turlari bilan shug'ullanishga intilish yuqori bo'ladi. Bunday o'quvchilar bilan psixokorektsion ishlarni olib borish tavsiya etiladi.

Jadvalga muvofiq yosh davrlariga xos bo'lgan tafovutlarni ham ko'rish mumkin. 9-sinf o'quvchilari 10 va 11-sinf o'quvchilariga nisbatan "ijtimoiy-psixologik zaiflik" shkalasi bo'yicha me'yoriy ko'rsatkichda 56,25%ni tashkil etib, yuqori sinf o'quvchilari natijalaridan past ko'rsatkichga ega bo'ldilar. Bunday natijani tajriba va psixologik bilimlarni yetishmasligida deb izohlash mumkin. Maktab hududida 9-sinf o'quvchilarining 43,75%i o'zlarini ijtimoiy psixologik zaif deb bilishi ma'lum bo'ldi.

10-sinf o'quvchilari "ijtimoiy-psixologik zaiflik" shkalasi bo'yicha eng yuqori me'yoriy ko'rsatkichni qayd etdilar. 11- sinf o'quvchilariga nisban 3 %dan ko'prog'i ijtimoiy-psixologik zaif emasligini qayd etdilar.

Umumiy natjalarga ko'ra sinaluvchilarning 63,68%i maktab hududida o'zlarini erkin xis qilishlari qayd etildi. Qolgan 36,31% sinaluvchilar ta'lim muhitida uchrab turuvchi qaltis vaziyatlarga nisbatan yuqori moyilligi borligini qayd etdilar. Bunday xususiyatning namoyon bo'lishi tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, passivlik, ijtimoiy hamkorlikka nisbatan gipper sezuvchanlikda deb izohlash mumkin. Bu esa, ta'lim muhitida o'zga sub'ektlar bilan birlgilikda harakatni amalga oshira olmaslik muammosini keltirib chiqaradi va u o'z-o'zini nobud qilish tendentsiyasi orqali namoyon bo'ladi, o'ziga nisbatan destruktiv harakatlarni amalga oshirish, o'zini aybdor xis etish, arazchanlik va yuqori xavotirlik bilan birga kechadi. Bunday xulqning asosiy tavsiyi quydagilardan iborat: bir butunlikni yo'qotish, salbiy "men" kontseptsiyasi, tashqi ko'rinishga yuqori sezuvchanlik va ta'sirga beriluvchanlik tashkil etadi. Tashqi lokus nazoratning yuqoriligi, ma'suliyatni olmaslik ham namoyon bo'ladi. Samarali coping-strategiya (stressga moslashish layoqati, va qiyin hayotiy vaziyatlarni boshdan kechira olish, emotsiyal tenglikni saqlay olish xulqi)ni tashkilay olmaslik muammosini ham keltirib chiqaradi. Bu muammoning asosiy sabablardan shaxsning o'ziga past baho berishi, bo'ysunuvchanligigidadir. Ijtimoiy – psiholgik zaiflik sub'ektiv nuqtai-nazarning bo'lmashligiga, ijtimoiy sustlikka, apatiya, ijtimoiy-psixologik adaptatsiyada moslashuvchanlik jarayonining rivojlanshing jarayonidan ustunligiga olib keladi.

## PEDAGOGIKA

Keyingi navbatdagi shkala “ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya (parchalanish)” deb nomlanib, sinaluvchilarning natijalari 2-jadvalda berilgan.

**2-jadval.**

**“Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya (parchalanish)” shkalasi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar.**

Sinflar	Me’yoriy ko‘rsatkichlar (11-18 ball)	Me’yordan og‘ish ko‘rsatkichlar (11 baldan kam)
9-sinf	63,28 % (N=81)	36,71% (N=47)
10-sinf	76,66% (N=92)	23,33% (N=28)
11-sinf	78,78% (N=78)	21,21% (N=21)
<b>Umumiy ko‘rsatkich</b>	<b>72, 33% (N=251)</b>	<b>27,66% (N=96)</b>

“Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya (parchalanish)” shkalasi natijalari “ijtimoiy-psixologik zaiflik” shkalasi natijalaridan farq qilib, me’yoriy ko‘rsatkich bo‘yicha yuqori darajada ekanligi qayd etildi. Unga ko‘ra sinaluvchilarning 72,33% ijtimoiy-psixologik dezintegratsiyadan holi ekanligi va individual psixologik introekti (ichki ildizlarga ega bo‘lmagan va boshqa birov tomonidan odamga singdirilgan istak)ning pastligi ma’lum bo‘ldi. Qolgan 27,66% sinaluvchida individual psixologik interoekt yuqori bo‘lib, bunday o‘quvchilarda atrof muhitga qo’shilmaslik, chetlashganlik kuzatiladi. Shuningdek, ijtimoiy qo’llab quvotlash va kutishlar orientatsiyasining mavjud emasligi va maqsadga yo’nalganlikning sustligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya shkalasi bo‘yicha yuqori natijalar qayd etgan sinaluvchilarning umumiyligi holatida jizzakilik, va jamoa bilan chiqisha olmaslik namoyon bo‘ladi.

Sinaluvchilarning sinflar bo‘yicha tahlilida 9-sinf o‘quvchilarida qolgan yuqori sinf o‘quvchilariga nisbatan ijtimoiy-psixologik dezintegratsiyaning yuqoriligi qayd etildi (36,71%). Eng kam dezintegratsiya ko‘rsatkichi 11- sinf o‘quvchilarida qayd etildi. Bundan kelib chiqib shuni ta’kidlash joyizki, yuqori sinflarda o‘z fikrini bildira olish, ta’lim muhitiga faol qo’shila olish xislatlari yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi. SHuningdek, ta’lim muhitidagi o‘zgarishlarga va jamoadagiadolatsizliklarga sub’ektiv fikr bildira oladi degan xulosa chiqarish mumkin.

“Maktab o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi” so‘rovnomasining “Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi bo‘yicha olingan natijalar 4-jadvalda berildi.


**4-jadval.**

**“Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar.**

Sinflar	Me’yoriy ko‘rsatkichlar (12-20 ball)	Me’yordan og‘ish ko‘rsatkichlar (12 baldan kam)
9-sinf	52,34 % (N=67)	47,65% (N=61)
10-sinf	71,66% (N=86)	28,33% (N=34)
11-sinf	72,72% (N=72)	27, 27% (N=27)
<b>Umumiy ko‘rsatkich</b>	<b>64,84% (N=225)</b>	<b>35,15% (N=122)</b>

Yuqoridagi jadvalga muvofiq sinaluvchilarning “Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi natijalari tahlil etildi. 9-sinf o‘quvchilarida ushbu shkala bo‘yicha eng yuqori “Virtual autizatsiya (odamovilik)” tiplilar ko‘p ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ularning ko‘rsatkichi 47,65% bo‘lib, tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarning umumiyligi ko‘rsatkichidan 12,5% ko‘p ekanligi qayd etildi. “Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi bo‘yicha me’yordan og‘ish ko‘rsatkichiga ega o‘quvchilar muktabda o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlari past darajada bo‘lishligi, ijtimoiy aloqalarda past samradorlik bilan harakat qilishlari bilan ajralib turadi. Bunday o‘quvchilarda kommunikativ dialogning buzilishi sabab atrof muxitdagi tengqurlari va kattalar bilan muloqot jarayoni ziddiyatli kechadi. Atrof muhit bilan kechadigan hayot faoliyati anonim aloqadan iborat bo‘ladi va o‘z-o‘zini identifikatsiyalash muammosiga duch keladilar. Jamoada o‘zini namoyon qilish darajasi past ko‘rsatkichga ega bo‘ladi.

10 va 11-sinf o‘quvchilarida virtual autizatsiyali tiplilar nisbatan kam sinaluvchilarda qayd etildi. Odamovilik xususiyati ma’lum tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan jamoada o‘zini namoyon qila olishlik bilan o‘rin almashishi tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldi.



Uchala shkalaga oid natijalardan kelib chiqib "Ijtimoiy madaniy xavfsizlik indeksi" aniqlandi.  
1-diagramma. "Ijtimoiy madaniy xavfsizlik indeksi" ning umumiyl natijalari.

Diagrammaga muvofiq muktab o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi uchta shkalaga oid aniqlandi. Uchala shkaladan eng yuqori me'yoriy ko'rsatkich "Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya (parchalanish)" shkalasida qayd etildi. Unga ko'ra ijtimoiy-psixologik tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarning 72,3% dezentegratsiyadan holi ekanligi va individual psixologik introekti (ichki ildizlarga ega bo'limgan va boshqa birov tomonidan odamga singdirilgan istak)ning pastligi ma'lum bo'ldi. SHuningdek, ushbu shkala bo'yicha me'yoriy ko'rsatkichda 11-sinf o'quvchilari yuqori natijalarni qo'lga kiritdilar.

"Virtual autizatsiya (odamovilik)" shkalasida 64,8% sinaluvchi me'yoriy ko'rsatkichga ega bo'ldi. Ammo 9-sinf o'quvchilarida ushbu shkala bo'yicha me'yoriy ko'rsatkich umumiyl me'yoriy ko'rsatkichdan past ekanligi qayd etildi. Ularning natijalari 12,5%ga kam ekanligi ma'lum bo'ldi.

"Ijtimoiy-psixologik zaiflik" shkalasi bo'yicha ummuyl muktab ko'rsatkichi boshqa shkallalarga qaraganda eng past ko'rsatkichga ega ekanligi isbotlandi. Tadqiqot ishtirokchilaring 63,7%ida viktimniylik, ya'ni jinoyat qurbaniga aylanishga moyillik xususiyati va autoagressivlik, ya'ni jismoniy va aqliy sohalarda o'ziga zarar etkazishga qaratilgan (ongli yoki ongsiz ravishda) faoliyk xususiyati mavjud ekanligi qayd etildi. Bunday o'quvchilar o'zlarini ta'lim muhitida xavfsiz xis qilmaydilar va ushbu xususiyatlardan ximoya mexanizmi sifatida foydalanadilar.

"Ijtimoiy - madaniy xavfsizlik indeksi" 66,9% ni tashkil etdi. Demak, sinaluvchilarning deyarli 67% o'zi ta'lim olayotgan maskanni xavfsiz deb biladilar va ular o'zlarining ichki potentsialidan to'laqonli ravishda foydalana olib, jamoat ishlari va shaxsiy rivojlanishida faoliyk ko'rsata oladigan, vaziyatlarga nisbatan "real men" ga ega bo'lganliklari sabab to'g'ri baho berish malakalariga ega shaxslar deb xulosa berish mumkin.

### XULOSA

"Muktab o'quvchisining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi" metodikasi barcha kerakli psixometrik xususiyatlarga ega bo'lib, so'rovnoma ta'lim muhiti xavfini baholash uchun ishlatalishga imkon beradi. Xavfsizlik indeksiga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida birinchidan, ta'lim insonparvarlik g'oyalari bilan singdirilishi lozim degan g'oya (hamkorlik munosabatlari, xavfsiz muhit, shaxs erkinligi va mustaqilligini hurmat qilish, bola huquqlarini hurmat qilish, bolalarning rivojlanishi va muvaffaqiyatini rag'batlantirish, axloqiy dunyoqarashni shakllantirish va boshqalar) asasiy shior sifatida qo'llaniladi. Ikkinchidan, aniq qoidalar asosida tayyor ta'lim texnologiyalariga tayanish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtafigi o'zaro munosabatlarni tartibga solish g'oyasi ilgari suriladi.

Psixologik xavfsizlik muammosi, bolaning huquqlarini ximoya qilish, ta'limni insonparvarlashtirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy izlanishlarda bevosita yoki bilvosita qayd etilib

## PEDAGOGIKA

o'tiladi. Gumanistik psixologiya asoschilaridan biri A.Maslouning umum e'tirof etilgan ilmiy nuqtai nazariga ko'ra, inson ehtiyojlari sohasi ierarxiyasida xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj (fiziologik ehtiyojlar bilan bir qatorda) asosiy hisoblanadi. Gumanistik psixologiya vakillari xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojni hech bo'limganda qisman qondirmsandan turib, shaxsiy o'zini o'zi anglashga erishishni rivojlantirib bo'lmaydi degan fikrni olg'a suradilar. Jahonga mashhur olim E.Fromm fikricha, odamlar o'tasidagi insoniy munosabatlarni rivojlantirish jamiyatda shaxsning xavfsizligini ta'minlash va ximoyalash shartlarining mavjudligiga bog'liq deb ta'kidlaydi. SHu sababli, ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, ximoyalanganlik tushunchasi xavfsizlik tushunchasi bilan mustahkam bog'liq bo'lgan tushunchadir, xavfsiz sharoitlarning mavjudligi esa, shaxsiy rivojlanishni to'liq amalga oshirishning eng asosiy omili hisoblanadi. Bu masala ayniqsa psixologik-pedagogik sohasida dolzarbdir, psixologik qulay va xavfsiz ta'lif sharoitlarini yaratish shaxs kamolatini belgilab beradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abduqaxxarova O.S. Ta'lif muhiti – bolalarning to'laqonli ta'lif faoliyatini tashkil etishning asosiy sharti. "Teoriya i praktika sovremennoy nauki" №12(78) 2021- 3 b.
2. Рубцов В. В., Поливанова К. Н. Образовательная среда школы как фактор психического развития учащихся. — М.: ПИ РАО, 2007.
3. Слободчиков В. И. Психология образования человека. Становление субъектности в образовательных процессах. Учебное пос. — М.: «Православный Свято-Тихоновский гуманитарный университет», 2014. — 432 с.
4. Чиркина С.Е., Ахмеров Р.А., Бажин К.С., Царева Е.В. Основы формирования психологически безопасной образовательной среды: учебно-методическое пособие / С.Е. Чиркина, Р.А. Ахмеров, Казань: Издательство «Бриг», 2015. - 136 с
5. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. — М.: Смысл, 2001. — 365 с.